

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI, OILA VA MAHALLA HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGLARNING ROLI

Jizzax shahar 32-DMTT tarbiyachilari

Soatova Zulayho Adhamovna

Yakubova Umida Abduvaxobovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarga ta'lim-tarbiya berishda oila, mahalla va maktabgacha ta'lism tashkiloti hamkorligini rivojlanirishda pedagooglarning o'rni va ular olib borishi mumkin bo'lgan faoliyatlarining ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so'zlar: Maktabgacha ta'lism, pedagog, hamkorlik, yagona ta'lism makoni, pedagogik omillar, pedagogik-psixologik yondashuv, do'stona muloqot.

Bugun O'zbekistonda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lism berish, rivojlanirish va tarbiya qilish davlat siyosatining muhim vazifasi hisoblanadi. Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta'lism berishda ularning ijtimoiy, hissiy, kognitiv va jismoniy ehtiyojlarini uyg'unlashtirishga e'tibor beriladi. Maktabgacha ta'lism tashkilotlari pedagoglari maktabgacha ta'lism maqsadlarini amalga oshirishda asosiy rolni bajaradi, shuning uchun ularga ko'nikmalarni rivojlanirish va o'z xizmatlarini taqdim qilish, oila bilan hamkorlik tizimini mustahkamlash uchun keng imkoniyatlar yaratish, ularni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bir tomonidan bolalarning individual qiziqish va ehtiyojlari, ikkinchi tomonidan pedagog o'z oldiga qo'ygan ta'limgartarbiyaviy vazifalar o'rtasida samarali muvozanatga erishish uchun bolaning bu qiziqish va ehtiyojlari qanday ekanligi va ular vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarib borishini bilish oila bilan hamkorlik orqali

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

erishiladi. Har bir pedagog bolaning rivojlanishiga individual tartibda yondashish, uning shaxsini hurmat qilish, qiziqishlari, ehtiyojlari va rivojlanish darajasini hisobga olish, hissiy qulayliklarga g'amxo'rlik qilish va erkin ijodiy ifoda etishi uchun shart-sharoitlar yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Individual tahlil qilish va baholash bolani rivojlantirish va o'qitish nazariyalarini yaxshi tushunishni talab etadi. Bu nazariyalarni bilish, kuzatish jarayonida oila a'zolari bilan hamkorlikda tahlil qilish va sharhlashda yordam berishi mumkin. Pedagog amalda ko'rganlarini bolaning rivojlanish nazariyasi haqidagi bilimlari bilan boglashi mumkin va oila a'zolari bilan munosabatda shaxsiy farazlarini solishtirib ko'rishi mumkin. Bolalarni barkamol tarbiyalashga ularning ota-onalari va jamoatchilikning ta'lim jarayonida faol ishtirokisiz erishib bo'lmaydi. Ota-onalarning mакtabgacha ta'lim tashkilotlarining oila bilan hamkorligi borasidagi qarashlari turlicha bo'lganligi bois maktabgacha ta'lim tashkilotlari sharoitlaridan ota-onalarning qoniqish jihatlari o'zgarib bormoqda. Ba'zi oilalarda ota-onalarning o'z farzandlarini tarbiyalash va shaxsiy rivojlanishi masalalarini xal qilishdan voz kechish tendensiyasi kuchaygan. Ba'zi ota-onalar esa faqat bolaning ovqatlanishi bilan qiziqishadi, ular maktabgacha ta'lim tashkilotini faqat bolalarni boqadigan joy deb hisoblashadi. Boshqalar maktabgacha ta'lim tashkiloti ularning farzandlariga ta'lim berishlari kerak deb hisoblashadi. Pedagoglarning maslahatlarini e'tiborsiz qoldiradigan ota-onalar toifasi ham uchraydi. Ota-onalarning pedagogik faoliyat sohasiga jalb etilishi, ularning ta'limiy o'yin faoliyati jarayoniga qiziqishi o'z bolasi uchun juda muhimdir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni oilada tarbiyalashni, otaonalar bilan hamkorlikni bundan keyin yanada takomillashtirish yo'llarini izlab topish, oilaviy ta'lim bilan ijtimoiy ta'lim o'rtasidagi aloqani mustahkamlash pedagoglarning muhim vazifasidir. Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarida ancha jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani maktabgacha ta'lim

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

tashkilotlarida va oilada maktab ta'limiga hamkorlikda tayyorlash, davlat standartlari asosida egallashi lozim bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirish muhimdir.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining eng birinchi vazifasi tarbiyalanuvchilarning ota-onalari va oilasining boshqa a'zolari ongida bola tarbiyasida oila birinchi darajali ahamiyatga egaligi va har bir oila bolalarining faollashuvida oilaviy va ijtimoiy tarbiyaning birligiga erishilgandagina kutilgan natijaga olib kelishiga chuqur ishonch uyg'otishdir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilada maktabgacha yoshdagi bolaning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish, ularda har tomonlama, jumladan, ma'naviy, ahloqiy, aqliy, estetik, jismoniy va ehtiyojlari va bolalarning manfaatlarini to'liq qondirishga, bola uchun yagona ta'lim makonini yaratishga faqat erta bolalikdan oila va MTT o'rtaсидаги о'заро hamkorlikning yangi tizimini ishlab chiqqan holdagina erishish mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun oila va mahalla bilan hamkorlik qilish jarayonining inkor qilib bo'lmaydigan afzallikkari ko'p. Ya'ni:

- □ Bu pedagoglar va ota onalarning bolalarni tarbiyalashda bиргаликда ишларга бо'лган ижобиёй қарашидир;
- □ □ Bu bolalarning shaxsiy hususiyatlarini inobatga olishni taqozo etadi.
- □ Bu ota-onalar mustaqil ravishda maktabgacha yoshda bolaning rivojlanishi va tarbiyasida zarur deb hisoblagan yo'nalishni tanlaydilar va shakllantiradilar;
- □ Bu oilaviy aloqalarni hissiy mustahkamlash, umumiyligini qiziqishlar va bиргаликда biror bir faoliyatni olib borish demakdir;
- □ Bu maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila, mahalla bilan hamkorlikda bolalarni yagona dastur asosida tarbiyalash va ularni rivojlantirish uchun imkoniyatdir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila, mahalla bilan hamkorlikda bola ta'lim tarbiyasi uzviyligini ta'minlashni tashkil etish quyidagi asosiy pedagogik omillarga asoslanadi:
 1. Pedagog va oila o'rtaсидаги do'stona muloqot. Ushbu omil muloqotga ijobiy

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

munosabatni bildiradi va maktabgacha ta'limga pedagoglarining ota-onalar va mahalla bilan olib boradigan barcha ishariga asoslanadi. Pedagoglar har kun iota-onalar ilan muloqot qilishadi va bu butun oilaning maktabgacha ta'limga tashkilotiga munosabati qanday bo'lishiga asos bo'ladi.

2. Individual yondashun. Hamkorlikning ushbu omili nafaqat bolalar bilan ishlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda pedagogning ota-onalarga ishonchi, hamdardligi va birgalikda muayyan vaziyatda bolaga qanday yordam berishini o'ylash qobiliyati va pedagogik qobiliyati muhim ahamiyatga ega.

3. Murabbiylik emas, hamkorlik. Bugungi kunda pedagogik bilimlarni o'rgatish va oddiy targ'ib qilish ijobiy natija bermaydi. Muhim pedagogik vaziyatlarda oilaga o'zaro yordam va qo'llab-quvvatlash muhitini yaratish, oilaviy muammolarni yechish, jamoatchilikning bevosita aralashuvi, yechimini topishda pedagoglarning bola tarbiyasiga ta'sirini o'ylagan holda samimiy yordam bermoqchilagini e'tirof qilishkerak.

4. Tizimlilik. Maktabgacha ta'limga tashkilotlari bugungi kunda oddiy faoliyat ko'rsatish rejimida emas, balki rivojlanish rejimida bo'lishi lozim, mobil tizim bo'lishi, oilaning ijtimiy tarkibidagi o'zgarishlarga, ularning ta'limga ehtiyojlariga va ta'limga bo'lgan talablariga tezda javob berishi kerak. Shundan kelib chiqqan xolda maktabgacha ta'limga tashkiloti, oila va mahalla bilan ishlash shakli va yo'naliishlari o'zgarishi kerak.

5. Ochiqlik. Maktabgacha ta'limga tashkilotining oila uchun ochiqligi-har bir otaonaga uning bolasi qanday rivojlanishini bilish va ko'rish imkonini yaratib berishdan iborat. Bu muammoli vaziyatlar kelib chiqishini oldini olishda muhim hisoblanib, pedagog va oila, mahalla o'rtasida shaxsiy aloqalarni o'rnatish, har kun iota-onalarga bolaning kunni qanday o'tkazganligi, nimani o'rganganligi, qanday yutuqlarga erishganligi haqida ma'lumot berib borish kerak. Ota-onalar va pedagoglarning birgalikdagi faoliyati bizga bolalarni tarbiyalashdagi mavjud muammolarni birgalikda aniqlash va hal qilish imkonini beradi. Bunday hamkorlik quyidagi jihatlarga yordam beradi:

- Ikkala tomonnnig ta'limga olish imkoniyatlarini o'rganish;

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- Yuuqlar va muammolarni pedagog bilan birlgilikda aniqlash;
- O'qitish, ta'lim va rivojlanishning dolzarb muammolari nuqtai-nazaridan bolalar va kattalarning birgalikdagi loyihami faoliyati. Yuqoridagi hamkorlik yondashuvidan kelib chiqqan holda, oila, mahalla va maktabgacha ta'lim tashkilotining o'zaro hamkorligi bolaning har tomonlama rivojlanishi va ta'lim olishi uchun juda muhim bo'lib, u maktabgacha ta'lim tashkiloti uchun quyidagi maqsad va vazifalarni belgilab beradi:
 1. Ota-onalar va mahalliy jamoatchilik orasida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga samarali ta'lim berish va ularni rivojlantirishiga yo'naltirilgan hamkorlikni yo'lga qo'yish.
 2. Ota-onalar va mahalliy jamoatchilik o'rtasida o'zaro do'stona muhitni yaratish orqali MTT tarbiyalanuvchilarining pedagogik-psixologik kompetensiyalarini qo'llab-quvvatlash.
 3. Ota-onalarning MTT da o'tkaziladigan qo'shimcha tadbirlarda ishtiroki orqali ta'lim-tarbiya jarayoniga faolligini ta'minlash. MTT va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro do'stona hamkorlik MTT pedagoglari oldiga quyidagi muhim vazifalarni qo'yadi:
- Ota-onalar bilan o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlarni shakllantirish;
- Oilaning yagona ta'lim muhitida ishtirokini ta'minlash;
- Ota-onalarning tarbiyaviy ko'nikmalarini faollashtirish va boyitish hamda ularning o'zlaridagi pedagogik imkoniyatlariga bo'lgan ishonchlarini qo'llab-quvvatlash;
- Tarbiyalanuvchilarining oilalari bilan muntazam hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- Ota-onalarni rag'batlantirish. Xulosa qilib aytganda, pedagoglar va ota-onalarning bola ongiga ta'siri qarama-qarshi bo'lmasligi, aksincha, uyg'unlashgan, bir-birini to'ldirgan holda, bola tomonidan ijobiy va faol tarzda qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga erishish uchun pedagoglar va otaonalar o'zaro hamfikr, maslakdosh bo'lishlari, turli muammo va masalalarni hamkorlikda hal etishlari darkor. Pedagoglar oilalar bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yishda, oilaga yo'naltirilgan pedagogik-psixologik yondashuvlarga qaratilgan tamoyillarga

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

asoslangan faoliyatni amalga oshirishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Oilaviy ta'lif dasturi. Ilk bolalik davrida rivojlanish.Qo'llanma.-Toshkent,2014 y.
- 2.Grosheva I., Yestaf'yeva L., Maxmudova D., Nabixanova Sh., Pak S.,Djanpeisova G., Isxakova M. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi mактабгача та'lif muassasalari uchun.2018 y.
- 3.O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari.- Toshkent 2018
- 4.Цай Е.Ф.,Грошева И.В.,Назарова В.А., Исмаилова М.А..
Пособия для тренеров "Внедрения государственной учебной программы "Илк қадам" для дошкольных образовательных учреждений и государственных требований к развитию детей раннего и дошкольного возраста Республики Узбекистан".- Ташкент,2019 г.